**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati**
**yagona aksiyadorining**
**6-son qarori**

2023-yil 1-may
soat 11:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 3 -may kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**KUN TARTIBI:**

**“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosarini tayinlash.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan:**

Yagona aksiyador tomonidan Soliyev G‘ulomjon G‘ofurjonovich nomzodi jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga tavsiya qilindi.

G‘. Soliyev tarjimayi holi va mehnat faoliyati bilan yig‘ilish qatnashchilari tanishtirildi *(ma’lumotnoma ilova qilinadi).*

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 59-moddasi hamda jamiyat ustavining 10.6-bandiga “i” qismiga asosan Jamiyat boshqaruvi raisi va a’zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni hamda G‘. Solievning arizasini inobatga olgan holda, Soliyev G‘ulomjon G‘ofurjonovichni jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga tayinlash va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasini (shartnomani amal qilish muddati – 01.05.2026-yilgacha) tuzish taklif qilindi *(G‘. Soliyevning 2023-yil 1-maydagi arizasi ilova qilinadi).*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyati yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. Soliyev G‘ulomjon G‘ofurjonovich 2023-yil 1-may kunidan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari etib tayinlansin va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilsin.
2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari G‘. Soliyev bilan mehnat shartnomasini (shartnomani amal qilish muddati – 01.05.2026-yilgacha) imzolash vakolati yagona aksiyador – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisiga berilsin.
3. “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) G‘. Soliyev bilan mehnat shartnomasini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda tasdiqlash uchun kiritsin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori**
**“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan**
**boshqaruv raisi v.v.b.** **Y. Korjikov**

(Ибодуллаев) (Абдурахмонов) Маматова (Абдуллаев)